

## **FORMING PEDAGOGICAL RESPONSIBILITY AND ADAPTABILITY OF TEACHERS OF SPECIALIZED EDUCATIONAL ORGANIZATIONS FOR CHILDREN WITH DISABILITIES**

Mavjudra Ashurovna Tilakova

Head of the department "Pedagogy and psychology, educational technologies" of the Jizzakh Region National Center for Training Pedagogues in New Methods  
Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD)

### **ABSTRACT**

In the article, pedagogical innovations in special education, the professional activity of special education specialists, issues of the introduction of the inclusive education system in the Republic of Uzbekistan, increasing the market activity and management efficiency of educational institutions, inclusive education development processes, pedagogical activities issues such as the development of activity efficiency have been touched upon in their studies.

**Keywords:** Development of ways to improve the physical, mental and psychological development of disabled and disabled children, to include children in need of assistance in inclusive education.

### **IMKONIYATI CHEKLANGAN BOLALAR UCHUN IXTISOSLASHTIRILGAN TA'LIM TASHKIOTLARI PEDAGOG XODIMLARI O'QITUVCHISINING PEDAGOGIK MAS'ULIYATI VA MOSLASHUVCHANLIGINI SHAKLLANTIRISH**

Mavjudra Ashurovna Tilakova

Jizzax viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi "Pedagogika va psixologiya, ta'lism texnologiyalari" kafedra mudiri  
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

### **ANNOTASIYA**

Maqolada maxsus ta'limdagi pedagogik yangiliklar maxsus ta'lism mutaxassislari kasbiy faoliyati O'zbekiston Respublikasida inklyuziv ta'lism tizimining joriy etilish masalalari, ta'lism muassasalarining bozor faolligini va boshqaruv samaradorligini oshirish, inklyuziv ta'lismni rivojlanish jarayonlari, pedagogikc faoliyat bo'yicha tadqiqotlarida faoliyat samaradorligini rivojlanirish kabi masalalarga to'xtalib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** Nogironlar va nogiron bolalar, ularning jismoniy, aqliy, psixik rivojlanishini yaxshilash, hayotga moslashtirish yo'llarini ishlab chiqish, yordamga muhtoj bolalarni inklyuziv ta'limga qamrab olish.

### **АННОТАЦИЯ**

В статье педагогические инновации в специальном образовании, профессиональная деятельность специалистов специального образования, вопросы внедрения системы инклюзивного образования в Республике Узбекистан, повышения рыночной активности и эффективности управления образовательными учреждениями, процессы развития

инклюзивного образования, вопросы педагогической деятельности, такие как так как развитие эффективности деятельности затрагивалось в их исследованиях.

**Ключевые слова:** Разработка путей совершенствования физического, умственного и психологического развития детей-инвалидов и детей-инвалидов, включения детей, нуждающихся в помощи, в инклюзивное образование.

Inklyuziv ta'lim konsepsiyasini O'zbekistonda joriy qilish va undagi muammolarni hal qilish maqsadida turli xil chora-tadbirlar uyuştirish, matbuot-axborot vasitalari orqali targ'ibot-tashviqot ishlari bir muncha faollashdi. Respublika ta'lim markazi YuNESKO tashkiloti bilan hamkorlikda 2001 yilda "Inklyuziv ta'lim" mavzusida seminar o'tkazib, uning tavsiyalariga asosan Respublika Ta'lim Markazi maxsus ta'lim bo'limi qoshida "Inklyuziv ta'lim resurs markazi" tashkil etildi. "Inklyuziv ta'lim resurs markazi"ning vazifalari quyidagilardan iborat qilib belgilandi:

- ta'limga jalb etilmagan imkoniyati cheklangan bolalar ta'limini tashkil etishga ko'maklashish;
- inklyuziv sinf va guruhlarni o'quv metodik majmualar bilan ta'minlash;
- joylardagi resurs markazlarga amaliy-uslubiy yordam ko'rsatish;
- imkoniyati cheklangan bolalarning ota-onalariga farzandlarini tarbiyalash, maktabga va ijtimoiy hayotga tayyorlashga oid turli shakldagi tadbirlarni tashkil etish, maslahatlar berish;
- imkoniyati cheklangan bolalar va o'smirlarga ta'lim berish, kasb-hunarga o'rgatish ishlarini amalga oshirish maqsadida umumta'lim muassasalarida inklyuziv sinflar va guruhlar tashkil etish, ta'limni integrasiya asosida olib borish kabilar.

Ta'lim muassasalari imkoniyati cheklangan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan ta'lim tashkilotlari pedagog xodimlari o'qituvchisining uchun tashkil qilinadigan uzluksiz kasbiy rivojlanish kursi mavjud bo'lim bu kursning maqsadi – zamonaviy ta'lim, ta'lim-tarbiya jarayoni samaradorligini oshirish uchun zarur bo'ladigan kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarni muntazam yangilash, malaka talablari asosida ularning kasbiy faoliyatga doir kompetentligini rivojlantirishdan iborat.

Ta'lim muassasalari imkoniyati cheklangan bolalar uchun ta'lim haqida gap ketganda 2002 yilning 31 may kuni "Ta'lim hamma uchun Dakar Deklorasiyasi"ning mohiyatini O'zbekistonda tadbiq etish yuzasidan Xalq Ta'limi Vazirligi, YuNESKO xalqaro tashkiloti bilan hamkorlikda "Ta'lim hamma uchun" mavzusida halqaro forum tashkil etildi. Forumda xalqaro YuNESKO tashkilotining eksperti janob Kotibxon ishtirok etib forum qatinashchilariga "Ta'lim hamma uchun" Milliy dastur rejasini ishlab chiqish mavzusida seminar tashkil etilganligi haqidagi ma'lumotlar ham yuqorida fikrlarimizga to`la asos bo`la oladi. Natijada 2003 yil "Ta'lim hamma uchun" dasturining Milliy rejası ishlab chiqildi. "Ta'lim hamma uchun" dasturining Milliy rejası 2000 yilgi Dakar shartnomalari doirasida ishlab chiqilgan bo'lib, siyosatchilar, ta'lim tizimi, vazirlik va idoralar rahbarlari, pedagoglar, jamoat arboblari, O'zbekiston Respublikasi uzluksiz ta'lim tizimini rivojlantirish muammolari bilan qiziquvchi barcha shaxslar uchun mo'ljallangan.

"Ta'lim hamma uchun" Milliy harakat rejasini ro'yobga chiqarish bo'yicha yaqin davrlar (2001-2015- yillar)ga mo'ljallangan tadbirlar belgilanib, u Ta'lim hamma uchun milliy harakati hamda umumiy o'rta ta'lim maqsad va vazifalarini ro'yobga chiqarish siyosati" deb nom olgan VI bandining IX yo'nalishi Maxsus ta'limga yo'naltirilgan bo'lib, unda maxsus ehtiyojli bolalarni umumta'lim muassasalariga jalb etishda qonunchilik va me'yoriy bazani

takomillashtarish, maktabgacha va boshlang'ich ta'lism tarbiya, maxsus ta'lism mazmunini, inklyuziv ta'lism jarayonining o'quv-uslubiy tomonini takomillashtirish, pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish, inklyuziv ta'lismning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, inklyuziv ta'lismni joriy etishda targ'ibot-tashviqot ishlarini olib borish va boshqa masalalar qayd etilgan.

2005 yilning 19 sentyabr kuni XTVning 234-sonli buyrug'i bilan «Imkoniyati cheklangan bolalalar va o'smirlar uchun inklyuziv ta'lism to'g'risida muvaqqat Nizom»i tasdiqlandi. Ushbu Nizomda inklyuziv ta'lism tizimining maqsad, vazifalari belgilab berilgan. Unda qayd qilinishicha, imkoniyati cheklangan bolalar va o'smirlar quyidagi tartibda inklyuziv ta'limga qamrab olinadi:

- ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar;
- harakat muvozanati buzilgan;
- o'z-o'ziga xizmat qila oladigan debillik darajasidagi oligofren bolalar va o'smirlar;
- nutqida nuqsoni bo'lgan (muloqoti cheklanmaydigan darajadagi) bolalar;
- zaif ko'rvuchchi bolalar va o'smirlar;
- zaif eshituvchi va kech (5 yoshdan keyin)kar bo'lgan bolalar;
- ko'zi ojiz (Brayl yozuvi va o'qishni egallagan) bolalar va o'smirlar;
- kar (muloqot darajasida nutqi bo'lgan, o'qish va yozishna egallagan) bolalar va o'smirlar.

«Imkoniyati cheklangan bolalar va o'smirlar uchun inklyuziv ta'lism to'g'risida muvaqqat Nizom»ning 4-bandida inklyuziv ta'lism tizimida o'quv tarbiya jarayonini tashkil etishning quyidagi masalalari qayd etilgan:

Inklyuziv ta'lismni tashkil etilgan barcha umumta'lism maktablarida imkoniyati cheklangan bolalar va o'smirlarga nisbatan do'stona munosabat ruhi shakllanadi.

Inklyuziv ta'lism amalga oshirilayotgan umumta'lism maktablarida Davlat Ta'lism standartlariga ilova sifatida imkoniyati cheklangan bolalar va o'smirlar uchun korreksion dasrlar ham inobatga olinadi, maxsus korreksion ishlarni amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratiladi (maxsus jixozlangan korreksiya xonasi, maxsus infrastruktura).

Inklyuziv ta'lism amalga oshirilayotgan umumta'lism maktablarida taylorlov guruh va birinchi sinflarida 35 daqiqa boshqa sinflarad 45 daqiqadan darslar olib boriladi;

Imkoniyati cheklangan bolalar va o'smirlarning bilimlari ularning shaxsiy xususiyatlari va qobiliyatlariga asoslangan holda belgilangan tartibda baholanadi.

Ta'lism jarayonida zamonaviy umumdidaktik tamoyillar bilan bir qatorda maxsus tamoyillar ham e'tiborga olinadi.

Korreksion ta'lism o'quvchilarning ehtiyojlariga ko'ra tabaqlashtirilga holda tashkil etiladi.

Inklyuziv ta'lism amalga oshirilayotgan umumta'lism maktabiga o'quvchilar ota-onalarning arizasi hamda "Tibbiy-psixologo-pedagogik komissiya"lari xulosalari asosida qabul qilinadi va ta'lism muasasalari rahbarlarining buyrug'i bilan tasdiqlanadi.

Inklyuziv ta'lism amalga oshirilayotgan umumta'lism maktabidagi sinflarida integrasiya qilingan o'quvchilar soni 4 nafardan oshirilmaydi hamda o'quvchilar umumiyligi soni 25 nafargacha belgilanadi.

Shuningdek mazkur Nizomda inklyuziv ta'lism ishtirokchilari, inklyuziv ta'lism mutaxassislarining ota-onalar yoki boshqa qonuniy vakillar bilan hamkorligi, xalqaro hamkorlikda qatnashish xususiyatlari batafsil bayon etilgan.

Imkoniyati cheklangan bolalar va o'smrlar uchun nklyuziv ta'lim muvaqqat Nizom" asosida Respublikamizda inklyuziv ta'lim tizimining quyidagi huquqiy-ijtimoiy asoslari yaratildi:  
-bolani ijtimoiy hayotga tayyorlashda yoshi, jinsi irqi, millatidan qat'iy nazar O'zbekiston Konstitusiyasining moddasiga asosan barcha bolalar umumta'lim jarayoniga kiritish va ijtimoiy hayotga moslashtirish lozimligi belgilangan;  
-har bir bola o'zining qiziqishi qobiliyati, va ehtiyojiga ko'ra mos ravishda bilim olishi huquqiga ega;  
-ta'lim dasturini ishlab chiqishda va amalga oshirishda o'ziga xoslik va ehtiyojlarning turli-tumanligini nazarda tutish;  
-har bir bola tengdoshlar qatori bilim olish huquqiga ega bo'lishi;  
-bolani ta'limga emas, balki ta'limni bolani ehtiyojiga ko'ra tashkil etilishi;  
-bolan muhtojligi va imkoniyatini e'tiborga olgan holda ta'lim metodologiyasini, o'quv rejalarini ixcham bo'lishini qo'llab-quvvatlash hamda baholash;  
-inklyuziv ta'lim muammoni bolada emas, tizimda ekanligini aniqlaydi, bolaga qulay shart-sharoit yaratishni ta'minlaydi;  
-bolani shaxsiy ehtiyojiga qarab korreksion-pedagogik va ijtimoiy yordamni tashkil qiladi va hokazo.

Yuqorida keltirilgan inklyuziv ta'limning huquqiy asoslarga tayangan holda bu ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, uni amaliyatga joriy etishni jadallashtirish maqsadida 2005 yilning 14-15 dekabr kunlari Toshkent shahrida "Ta'lim hamma uchun" Milliy dasturini joriy qilish bosqichlari mavzusida yirik xalqaro Konferensiya o'tkizildi. Ushbu konferensiyada xalqaro tashkilotlarning O'zbekistondagi vakolatxonalarining vakilliri ham o'z ma'ruzalari bilan ishtirok etdilar. YuNISEF tashkiloti vakili Reza Xosseyn, YuNESKO tashkiloti vakili Bari Layn, "Mersi Projekt", "Opereyshn Mersi", Kosta Rika davlatlari xalqaro vakillari shular jumlasidandir.

Inklyuziv ta'lim kontseptsiyasini O'zbekistonda joriy qilish va undagi muammolarni hal qilish maqsadida turli xil chora-tadbirlar uyushtirish, matbuot-axborot vositalari orqali targ'ibot-tashviqot ishlari bir muncha faollahashdi.

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (1992 yil; 41-moddal)
2. «O'zbekiston Respublikasida nogironlarni ijtimoiy himoyalash to'g'risida»gi Qonun (1991 yil, 19, 27-moddalar)
3. «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun (1997 yil, 22, 23-moddalar)
4. «Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida»gi Qonun (2008 yil; ta'lim olishdagi teng imkoniyatlar va alohida kafolatlari, 28, 29-moddalar)
5. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi (o'quvchilarni qobiliyat va imkoniyatlariga muvofiq o'qitishga differentsiy yondashuv)
6. «Ijtimoiy himoya yili» davlat dasturi (2007 yil, 4. 2-band), «Yoshlar yili» Davlat dasturi.
7. «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun (2020 yil)

Imkoniyatlari cheklangan bolalarning, hoh u maxsus maktab, mактабгача muassasalar bo'lsin, hoh umumta'lim muassasalari qoshidagi sinf yoki guruuhlar bo'lsin, hoh uyda ta'lim olish bo'lsin, o'qitishning barcha shakllari, ita'lim sohasiga jalb qilinishi ma'lum jihatdan integratsiya jarayoni hisoblanadi, chunki o'qish davrida va undan keyin ham bu bolalar boshqa bolalar, shu jumladan umumta'lim muassasalarda ta'lim olayotgan bolalar bilan o'zaro

muloqotda bo‘ladilar, ularning ijtimoiy moslashuvi va jamiyatga uyg‘unlashuvi ta’milnadi. Biroq, ta’lim olish uchun mos shart-sharoitlarni tanlash har bir bolaning va ota-onasining huquqi hisoblanadi. Psixologik-tibbiy-pedagogik komissiya mutaxassislar zimmasiga bolaning ruhiy-jismoniy holatini o‘rganish va tashxis qilish vazifasi yuklangan bo‘lib, bolani har tomonlama tekshirish natijasida bolalarni o‘qitish va ularga mos keladigan ta’lim sharoitini aniqlashga doir tavsiyalar beriladi. Shunday qilib, o‘ziga xos ehtiyojlari bo‘lgan bolaning umumta’lim sohasiga samarali jalg qilinishi uchun quyidagilar zarur:

- bolaning rivojlanishida ijobiy natijalarga erishishga imkon beradigan korrektcion tadbirlarni erta yoshdan boshlash
- umumiyligda qilingan har bir bola uchun tibbiy-psixologik-pedagogik kuzatuvni, ya’ni mutaxassislarning doimiy yordamini tashkil etish;
- ruhiy-jismoniy rivojlanishi va ta’lim ehtiyojlaridan kelib chiqib, imkoniyatlari cheklangan har bir bolaning sog‘lom bolalar bilan birgalikda tarbiya va ta’lim olishining zarur shakllarini tanlashni ta’minalash.

Respublika ta’lim markazi YuNESKO tashkiloti bilan hamkorlikda 2001 yilda “Inklyuziv ta’lim” mavzusida seminar o’tkazib, uning tavsiyalariga asosan Respublika Ta’lim Markazi maxsus ta’lim bo‘limi qoshida “Inklyuziv ta’lim resurs markazi” tashkil etildi. “Inklyuziv ta’lim resurs markazi”ning vazifalari quyidagilardan iborat qilib belgilandi:

- ta’limga jalg etilmagan imkoniyati cheklangan bolalar ta’limini tashkil etishga ko‘maklashish;
- inklyuziv sinf va guruhlarni o‘quv metodik majmualar bilan ta’minalash;
- joylardagi resurs markazlarga amaliy-uslubiy yordam ko‘rsatish;
- imkoniyati cheklangan bolalarning ota-onalariga farzandlarini tarbiyalash, maktabga va ijtimoiy hayotga tayyorlashga oid turli shakldagi tadbirlarni tashkil etish, maslahatlar berish;
- imkoniyati cheklangan bolalar va o‘smlarga ta’lim berish, kasb-hunarga o‘rgatish ishlarini amalga oshirish maqsadida umumta’lim muassasalarida inklyuziv sinflar va guruhlar tashkil etish, ta’limni integratsiya asosida olib borish kabilari.

Har qanday ta’limning maqsadi-bilim va malakalarni shakllantirishib shunga mos shaxs sifat va xislatlarni ishlab chiqishdir. Ta’lim-tarbiya jarayonining har bir bosqichi uchun begilangan maqsadlar turli usullar majmuida amalga oshiriladi. Shuning uchun ham pedagogik metodni yeng muhim omil bo‘lib, aniq o‘quv mashg’ulotining didaktik vazifasiga xizmat qiladi.

## REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni 2020-yil 23 sentyabr, O‘RQ-637-son.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni 2020 yil 23 sentabr.
3. Ашурев, М. Ў.; Ашурева, М. М. (2020). Математика ўқитишида замонавий ахборот технологияларидан фойдаланиш. Ўзбекистонда илмий амалий тадқиқотлар, 1(1), 254-256.
4. Artikov, A. (2020). About some methodological problems in teaching special sciences. *Scientific Bulletin of Namangan State University*, 2(7), 379-384.

5. Ашурев, М. У., Ашурева, М. М., Жумабаев, Р. Б., & Тожидинова, Д. Ф. (2016). Академик лицей ва қасб-хунар колледжлари ўқувчиланинг дастурлаш кўникмаларини шакллантириш. In *Конференция* (Vol. 2, No. 2, pp. 96-97).
6. Babakhodjayeva, N. M. (2020). Visualizers of algorithms as effective means of information technologies in education. EPRA International Journal of Multidisciplinary Research, 6(9), 421-425.
7. Babakhodjayeva, N. M. (2020). Program-methodological complex as a means of improving the quality of learning in higher educational institutions. *Theoretical & Applied Science*, (7), 166-171.
8. Kadirova, Z. Z. (2021). Some comments on the interpretation and contrast aspects of the terms “Paraphrase” and “Periphrase”. *Theoretical & Applied Science*, (6), 486-489.
9. Kadirova, Z. Z. (2019). Principles of differentiation of periphrasal and euphemic units. *Scientific Bulletin of Namangan State University*, 1(10), 269-273.
10. Kadirova, Z. Z. (2021). Alisher Navoiyning nasriy asarlarida insonga xos xususiyatlarni ifodalovchi perifrazalar. Ilm sarchashmalari, 2(2), 176-178.
11. Umarova, A. I., Miskinoa, S. Z. (2022). Cluster approach to the educational process in the organization of preschool education. International Conference on Social and Humanitarian Research, 1(2), 74-76.
12. Тригулова, А. Х., Кимсанов, О. (2021). Музыкальные способности и их значение в процессе обучения учащихся музыкальных школ. Uchinchi renessans davrida maktabgacha ta’lim-tarbiyaning roli, 2(4), 50-53.
13. Kimsanov, O. (2021). Developing musical skills in the process of studying large-scale works in art school students. *Science and Education*, 2(12), 597-601.
14. Trigulova, A. K., & Kimsanov, O. (2021). Musical sense of hearing and methods of its development in the process of piano performance. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(10), 1002-1004.
15. Умарова, А. И., Мискинова, С. З., Кимсанов, О. (2022). Таълим технологиялардан фойдаланишнинг ўзига хос хусусиятлари ва аҳамияти. O‘zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar, 2(9), 207-210.
16. Умарова, А. И., Абдалова, С. Р., Мискинова, С. З. (2022). Таълим олувчилик етакчилик қобилияtlарини аниқлаш ва ташхислаш. O‘zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar, 2(9), 203-206.
17. Eshmuminov, A. (2019). Problems of creating national corpus of the uzbek language. level of synonyms. *Theoretical & Applied Science*, (5), 47-50.
18. Eshmuminov, A. (2022). The study of the meronymic phenomena in linguistics. *Барқарорлик ва етакчи тадқиқотлар онлайн илмий журнали*, 2(4), 265-266.
19. Umarova, A. I. (2022). Children with development problems music education and correction rhythmic. Экономика и социум, 95(4), 507-510.